



ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-fevral

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 %ga kamaydi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,9 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,2 %ni tashkil qildi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (39,5 foiz), Sirdaryo (12,2 foiz), Sardoba (8,0 foiz) va

Guliston (8,0 foiz) tumanlari Chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, %da



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 1,9 foizga kamayib, 440,8 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-fevral oylarida 362,8 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (1601,2 ming so'm), Yangiyer shahri (701,2 ming so'm) va Sardoba tumanida (452,0 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 4,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 4,9 %ga kamaydi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,3 %ni tashkil etdi.




Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	440,8	98,1
Guliston shahar	1601,2	101,2
Shirin shahar	256,5	94,6
Yangier shahar	701,2	96,8
Boyovut tumani	154,6	95,4
Guliston tumani	417,8	94,1
Mirzaobod tumani	341,8	98,7
Oqoltin tumani	249,2	94,7
Sardoba tumani	452,0	96,9
Sayxunobod tumani	186,3	97,4
Sirdaryo tumani	354,6	98,4
Xovos tumani	140,8	91,0

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 %ga kamaydi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 94,1 %ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasi hajmidan 32,4 mlrd. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,1 %ni tashkil etdi.




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston tumanida 99,6 %, Sardoba tumanida 99,5 %, Sayxunobod tumanida 99,1 %, Xovos tumanida 98,8 %, Oqoltin tumanida 98,6 % va eng past ulush Guliston shahrida 89,4 % qayd etildi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-fevral oylarida ulgurji tovar aylanmasi 144,4 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 105,0 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 588,1 %, Guliston tumani 161,4 %, Sardoba tumani 159,8 %, Oqoltin tumani 151,1 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,9 %ga kamaydi va 96,2 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 66,6 %ni tashkil qildi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: S.Xaitmamatov
(0371) 230-86-16